

## ABDULLA QODIRIY IJODIDA TEATR VA DRAMATURGIYA

*Abduqodirova Gulbahor Mamazoidovna*

*Xonobod shahar kasb-hunar maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*



XX-asr boshlarida jadid adabiyoti bilan birgalikda dramaturgiya ham Turkistonliklar hayotiga kirib keladi va xalq orasida katta obro qozonadi. O'zbek romanchilik maktabining asoschisi, mohir publitsist, 300ga yaqin feletonlar muallifi Abdulla Qodiriyning teatr xususidagi qarashlari, ayrim dramaturglarga munosabati va bu sohadagi izlanishlarini ko'rish mumkin.

Qodiriy ayni shu teatr san'ati haqida bir necha maqolalarda fikrlar bildirgan, 1919-yil esa kattagina ilmiy maqola yozgan. Mazkur maqola "Bizda teatru ishning borishi" deb nomlanib "Ishtiroqiyun" gazetasining 11-dekabr sonida chop etilgan. Maqola quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "Ma'lumdirki, bizni Turkistonda drama ham teatrning tarixlari 1912-yildan boshlab bularni qabul qilinishimizga 7 yillar bo'ldi". Muallif "Padarkush" dramasi dan ilgari ham Turkistonda tatar teatrlari mavjud bo'lganligini, lekin ular bizning turmushimizdan yiroqroq bir ruhdagi asarlar bo'lganligi uchun mahalliy xalqni yetarli darajada o'ziga jalb eta olmagan ma'lum qiladi. "Padarkush" dramasi juda keng ommalashtirilganini, mazkur piessa orqali xalq teatr maqsadini anglatganligini iftixor bilan yozadi. Shu o'rinda teatr o'zi nima ekanligini aytib o'tishimiz joizdir. Teatr yunoncha "tomoshagoh" cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko'rinishi orqali tomoshabinga fikr uztuvchi san'at janridir. Teatr san'atida xalq hayoti, tarixi, dunyo qarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki va yozma dramaturgiya yotadi. Dramaturgiya esa (yunoncha, dramaturgia) muayyan san'atkor, davr va xalqqa mansub dramtik asarlar majmui.

Biz fikr yuritayotgan 1919-1920-yillar dramaturgiyaning taraqqiyot davri bo'lib, bu davrda Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Hamza kabi dramaturglarning g'oyat muvaffaqiyatli sahna asarlari maydonga chiqib keldi. Lekin, shu bilan bir qatorda yosh havaskorlarning sahna asarlari ham dunyo yuzini ko'ra boshladi. Bu asarlar mualliflari o'zlarini dramaturg (opera yozuvchi) deb atardilar va o'z asarlarini sahnalashtirishga urinardilar. Abdulla Qodiriy bundaylar to'g'risida: "Tragediya yozmaganlariga shukur qilasan endi", deb istehzo qiladi.

Hayotimizdan uzoq mavzusi ahamiyatsiz bo'lgan bunday "sahna asarlari" xalqimizga adabiy maktab bo'lishi kerak bo'lgan teatrning obro'sini tushirib yubordi.

Qodiriy “Havodarg’a desang shar-shar maorifga desang zambar” maqolasida To’ytepa qishlog’ida talabalar teatr qo’yganligi, lekin talabalar chiqimdor bo’lib bilet olganligi va teatrga kirmaganligini yozadi.

Bunday holat san’at uchun juda achinarli edi. Abdulla Qodiriy ayni shu xavfning oldini olish, teatr adabiyotning nufuzini oshirish maqsadida birinchilardan bo’lib harakat boshladi. Adabiyot olamiga endi kirib kelayotgan yoshlarni to’g’ri yo’lga solishga, ularga komediya, drama, umuman, badiiy adabiyot, badiiy asar haqida tushunchalar berishga o’zida ehtiyoj seza boshladi. Muallif “Teatru turmushimizdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko’z oldimizga mahkum qilib ko’rsatuvchi bir oynadur” deb izohlaydi.

Xalqimizda bir yaxshi maqol bor: “Ming marta eshitgandan, bir marta ko’rgan afzal”. Demak, kundalik hayotimizda uchrab turadigan, tuzatilishi shart bo’lgan xato va kamchiliklarni tomoshabinga kulgili tarzda yetkazish, uning tub mohiyatini ochib berish asarning bosh talabi bo’lib, shunday yo’l tutulganda nuqsonlarni tezroq bartaraf qilish mumkin bo’ladi.

Dramaturg asarga mavzuni turmushimizning yemirilib borayotgan joyidan olishi, shu barobarida adabiyot tarozisiga solib yozishi kerak. Ba’zi bir asarlarda mavzu yaxshi tanlangan bo’lsada qahramonning so’zi va ishi harakteriga nomuvofiq, monolog o’rniga dialog ishlatilgan, yoki, aksincha, qahramonlarning ruhiy olami yaxshi ochib berilmagan, dalillar to’la ko’rsatilmagan.

Qodiriy yangilik bilan eskilik hech qachon bir-birini o’ldirishga borib yetmaydi, balki eskilikdan yangilik o’ziga ozuqa oladi, deb yozadi. Maqolanavis shu kabi sahna asarlari haqida gapira turib: “Bu holning davomi yosh sahnamiz uchun jinoyatdir!”- deya qattiq ta’kidlaydi. Bu nuqsonlardan qutilishning birdan bir yo’li tanqiddir. Chunki beg’araz, foydali tanqid doimo san’atning rivojlanishiga olib kelgan. Lekin maqola yozilgan 1919- yillarda iqtidorli tanqidchilar yetishib chiqmagan edi. O’sha davr tanqidchilari uchun eng asosiy masala aktyor yoki sahnaning nuqsonlari edi. Yangi o’zbek tanqidchiligiga asos solganlaridan biri Qodiriy faqat shu kamchiliklar bilan cheklanib qolmay, birinchi navbatda teatr asarlarini umumiy adabiyot o’lchoviga solib tahlil qilish darkordir, - deb yozadi.

Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida to’ylar, turli marosimlar bilan bog’liq muammolar, isrofgarchilik va dilxiraliklar asosiy muammo bo’lib ko’rsatilgan. Bunga sabab, insonlarning tor dunyoqarashi, atrofdagi odamlarning gapiga arab ish qilish va albatta haddan ortiq orzu-havasga berilishidir. Bunday insonlar nafaqat o’zini balki boshqalarni ham qiyin vaziyatga qoldirishi, hattoki hayotiga zomin bo’lishi ham mumkin.

Qodiriy o’zining “Baxtsiz kuyov” dramasida aynan shu kabi muammolarni ko’targan. Muallif qoloq odatlardan biri- hashamatli to’y ortiqcha sarf-xarajatlar va

ularning ko'ngilsiz oqibatlarini yoritadi. Ayni shu aytib o'tilgan hashamatlar hozirgi kunda ham davom etayotgani achinarli holatlardan biridir!

**Adabiyotlar:**

1. M.Rahmonov, Hamza (O'zbek davlat akademiya drama teatri) tarixi Toshkent 1999-yil
2. B. Karimov XX-asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida).FFD disertatsiyasi, T., 2002
3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O'zbek tili va adabiyoti, 2001
4. Oybek (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li), Toshkent 1979
5. M. Qo'shjonov O'zbekning o'zligi Toshkent 1994